

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

«TASDIQLAYMAN»
O'zbekiston davlat jahon
tillari universiteti rektori
I.M. Tuxtasinov

« 22 » 2024 yil



«MAQULLANDI»
O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi OAK raisi
A.T. Yusupov

« 8 » 2024 yil



13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (xorijiy tillar) fanidan
maxsus imtihon
DASTURI

Toshkent – 2024

Mazkur Dastur O'zbekistan Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining
2024 yil « 8 » 05 dagi 354/4 sonli qarori bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchilar: L.Axmedova - pedagogika fanlari doktori, professor
K.Karayeva - pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar: D.Xoshimova - pedagogika fanlari doktori, professor
(TDYuU)
E.Lagay - pedagogika fanlari doktori, professor
(O'zDJTU)

Mundarija

Kirish.....	3
Malakaviy imtihonning asosiy talablari.....	4
Baholash mezonlari.....	5
O'zbekistonda chet tillarini o'qitish metodikasi.....	6
Chet tillarini fan sifatida o'qitish metodikasi.....	6
O'qitishning maqsadi va vazifalari.....	6
Chet tillarini o'qitish mazmuni. O'qitish mazmuni.....	6
Chet tillarni o'qitish tamoyillari.....	7
Ta'limning tashkiliy shakllari.....	7
Chet tillarni o'qitish vositalari.....	7
Nutqni tinglab tushunishga o'rgatish (audirovaniye).....	7
Og'zaki nutqni o'rgatish.....	7
O'qishni o'rgatish.....	7
Yozishni o'rgatish.....	8
Leksikani o'rgatish.....	8
Grammatikani o'rgatish.....	8
Talaffuzni o'rgatish.....	8
Rus/chet tillarini o'qitishda axborot, kommunikatsiya va zamonaviy pedagogik texnologiyalar.....	8
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	9

Kirish

Ushbu dastur doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar va 13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (chet tili) mutaxassisligi bo’yicha malaka imtixonini topshiruvchi mustaqil izlanuvchilar uchun mo’ljallangan.

Mazkur dastur “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda “Chet tillarni o’rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-1875-son qaroriga, 2019-yil 8-oktabrdagi 5847-sonli “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi; 2019-yil 19-iyuldagi “Yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish to’g’risida”gi Qarori; 2020-yil 29-oktabrdagi “2030-yilgacha fanni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PQ-6097-son qarori; 2021-yil 19-maydagi “O’zbekiston Respublikasida chet tillarni o’rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-5117-son qarori; 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarda Yangi O’zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to’g’risida”gi PQ-60-son qarori, shuningdek, ta’lim sohasida qabul qilingan boshqa me’yoriy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan.

Dasturni ishlab chiqishda Uzluksiz ta’lim konsepsiyasi, O’zbekiston Respublikasi uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlari uchun Chet tillar bo’yicha Davlat ta’lim standartining (DTS) asosiy qoidalari, shuningdek, chet tillarni o’qitishning xalqaro tajribasi hisobga olingan. Yevropa Kengashining "Chet tillar bo’yicha umumyevropa standartlari: hujjatini o’rganish asosida o’qitish, baholash" (CEFR - Common European Framework of Reference: Learning, Teaching, Assessment) hisobga olingan.

Dasturning o’ziga xos xususiyati shundaki, chet tili ta’limida o’qituvchini kasbiy shakllantirish kompetensiyaviy yondashuv asosida amalga oshiriladi. Ushbu kompetensiya turli xil kasbiy va ilmiy vaziyatlarda samarali faoliyat yuritish imkonini beruvchi hamda jahon ta’lim tizimida integratsiyalashuviga yordam

beruvchi lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik kompetensiyalar tizimini o'z ichiga oladi.

MALAKAVIY IMTIHONNING ASOSIY TALABLARI

Imtixonidan muvaffaqiyatli o'tish uchun rus/chet tillarini o'qitish metodikasini hozirgi holatini va tarixidagi asosiy muammolarni tushunish, shuningdek, tanlangan ta'lim sohasidagi muammolarni aniqlash qobiliyatini namoyish etish zarur. Darsliklarda yoki amaliy xarakterdagi maqolalarda keltirilgan har bir mulohaza dolzarbligini pedagogika, psixologiya va psixolingvistika ma'lumotlari bilan tasdiqlangan masalaning muammoli nuqtai nazaridan yoritilishi kerak.

Imtixon topshiruvchi O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlari (umumiy o'rta ta'lim, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlari) uchun rus/chet tili dasturlarini, amaldagi darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar va davriy nashrlarni yaxshi bilishi kerak.

Imtixon topshiruvchi rus/chet tillarni o'qitish amaliyoti bo'yicha bilimini va o'z tadqiqoti muammosini nazariy jihatdan taqdim etish, uning dolzarbligini isbotlash, ushbu masala bo'yicha olimlarning turli nuqtai nazarlarini va ularning fikrlarini tahlil qilish qobiliyatini namoyish qilishi kerak.

Har bir malaka imtixonu bileti 3 ta savoldan iborat. Birinchi savol nazariy, ikkinchisi nazariy-amaliy, uchinchisi ilmiy.

Har bir bilet

1-savol 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (chet til) mutaxassisligi bo'yicha nazariy bilimlarni baholashga qaratilgan.

2-savol nazariy va amaliy xarakterga ega bo'lib, imtixon topshiruvchining rus/chet tillarini o'qitishning zamonaviy metodlari va texnologiyalari bo'yicha nazariy va amaliy bilim darajasini aniqlashga qaratilgan.

3-savol imtixon topshiruvchining 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (chet til) mutaxassisligi bo'yicha tadqiqot faoliyatiga tayyorligini baholashga qaratilgan.

**IMTIXON TOPSHIRUVCHILARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI
BAHOLASH MEZONLARI**

Maksimal ball - 100 b.

Baho	Ball	Izoh
A'lo	86-100	Ballar har bir savol uchun alohida qo'yiladi va oxirida umumlashtiriladi. 1-2 savol uchun 35 ball. 3-savol uchun 30 ball.
Yahshi	71-85	
Qoniqarli	55-70	
Qoniqarsiz	0-54	

1-savol - 35 b.

Baho	Ball	Me'zonlar
A'lo	30 - 35	Chet tillarni o'qitish metodikasining zamonaviy yo'nalishlarini mukammal bilish va javobni ilmiy ma'lumotlar bilan asoslagan holda berish.
Yaxshi	25 – 29	Chet tillarni o'qitish metodikasining zamonaviy yo'nalishlarini bilish va savol mavzusi bo'yicha qisman ilmiy ma'lumotlarga tayangan holda javobni asoslash.
Qoniqarli	19 – 24	Chet tillarni o'qitish metodikasining ayrim zamonaviy yo'nalishlarini bilish.
Qoniqarsiz	0 – 18	Berilgan savol bo'yicha javob bera olmaslik

2-savol - 35 b.

Baho	Ball	Me'zonlar
A'lo	30 - 35	Shaxsiy kasbiy tajribani taqdim etish orqali rus/chet tillarini o'qitishning zamonaviy metod va texnologiyalari bo'yicha yuqori darajadagi nazariy va amaliy bilimga ega bo'lish.
Yaxshi	25 – 29	Shaxsiy kasbiy tajribadan misollar keltirmasdan, chet tilini o'qitishning zamonaviy metodlari va texnologiyalari bo'yicha nazariy va amaliy bilimga ega bo'lish.
Qoniqarli	19 – 24	Mavzu bo'yicha faqat nazariy yoki amaliy kasbiy tajribaga ega bo'lish.
Qoniqarsiz	0 – 18	Berilgan savollarga doir, mavzusi bo'yicha nazariy bilim va amaliy tajribaning yetishmasligi

3-savol - 30 b.

Baho	Ball	Me'zonlar
A'lo	27 – 30	Ilmiy tadqiqot mavzusi bo'yicha yuqori darajadagi ma'lumotlarga ega bo'lish, tadqiqotning ilmiy-

		nazariy asosni aniq tushunish va muammoning dolzarbligini isbotlash.
Yaxshi	22 – 26	Tadqiqotning ilmiy-nazariy asosni tushunish va tadqiqot muammosining dolzarbligi bo'yicha bahslasha olish.
Qoniqarli	17 - 21	Tadqiqotning ilmiy-nazariy asosni to'liq tushunmaslik va tadqiqot muammosining dolzarbligi bo'yicha oz miqdorda mulohaza yurita olish.
Qoniqarsiz	0 - 16	Tadqiqotning ilmiy-nazariy asosni taqdim eta olmaslik va muammoning dolzarbligini bo'yicha mulohaza yurita olmaslik.

O'zbekistonda chet tillarini o'qitish metodikasi.

Chet tillarni o'qitish metodikasining rivojlanish bosqichlarini davrlashtirish. Metodika fani rivojlanishining turli davrlarida asosiy o'qitish metodlari. O'qitishning maqsadi, mazmuni, tamoyillari va usullari. Mustaqillikka erishgandan keyingi zamonaviy metodologiyaning asosiy muammolari. Rus/chet tillarini o'qitishda o'quv jarayonini faollashtirish yo'llari.

Chet tillarini fan sifatida o'qitish metodikasi

O'zbekiston Respublikasida zamonaviy til siyosati.

Metodikaning predmeti va uning vazifalari. Metodikaning boshqa fanlar (pedagogika, didaktika, psixologiya, tilshunoslik, psixolingvistika va boshqalar) bilan aloqasi Ilmiy tadqiqot usullari, metodologiyaning kontseptual tushunchali mazmuni.

O'qitishning maqsadi va vazifalari. O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim tizimida chet tillarini o'qitishning maqsadi va vazifalari.

Chet tillarini o'qitish mazmuni. O'qitish mazmuni. O'qitishning maqsadi, vazifalari va mazmuni o'rtasidagi bog'liqlik. O'qitish mazmunining tarkibiy qismlari. Chet tilining kommunikativ kompetensiyasi. Lingvistik kompetensiya. Ijtimoiy lingvistik kompetensiya. Pragmatik kompetensiya. Uzluksiz ta'lim tizimining turli bosqichlari uchun rus/chet tillarni o'rgatish mavzu mazmuni.

Chet tillarni o'qitish tamoyillari. Chet tillarni o'qitish metodikasida umumiy didaktik tamoyillarni qo'llash xususiyatlari. Maxsus metodologik tamoyillar.

Ta'limning tashkiliy shakllari. Chet tili darslari tizimi: darslar/tizimi (Unit), ma'ruzalar, seminarlar, amaliy mashg'ulotlar va laboratoriya ishlarining davrlari (birliklari); o'qish imkoniyatlari (majburiy va tanlov); nutqiy faoliyat turlari. Masofaviy ta'lim. Rus/chet tillarda mustaqil ish, tashkil etish bosqichi va maqsadlariga ko'ra turlari. Chet tillarda darsdan, sinfdan, auditoriyadan tashqari ishlarning maqsadi va turlari.

Chet tillarni o'qitish vositalari. Chet tilini o'qitishning "vositalari" tushunchasi. O'quv qurollarining tasnifi. Chet tili dasturi eng muhim o'qitish vositasi sifatida. Darslikning o'quv jarayonidagi o'rni, darslik mazmuni muammosi, uslubiy tamoyillari, darslik va o'quv-metodik qo'llanmaning tuzilishi. O'qitishning texnik vositalari turlari. Chet tillarni o'qitishda AKT (axborot-kommunikatsion texnologiyalari)dan foydalanish imkoniyatlari.

Nutqni tinglab tushunishga o'rgatish (audirovaniye) Tinglab tushunish nutq faoliyatining og'zaki reseptiv turi sifatida. Tinglab tushunishni o'rgatish muammolari. Tinglab tushunishni o'rgatish uchun matnlarga qo'yiladigan talablar. Tinglab tushunishni o'rgatish texnikasi. Nazorat texnikasi va usullari: test, so'roq, reyting, test, imtixon. Davlat ta'lim standartlari bo'yicha tinglab tushunish kompetensiyasiga qo'yiladigan talablar. Tinglab tushunish qobiliyatlarini baholash mezonlari.

Og'zaki nutqni o'rgatish. Gapirish nutq faoliyatining bir turi sifatida. Dialogik nutqni o'rgatish muammolari. Monologik nutqni o'rgatish muammosi. DTS (Davlat ta'lim standartlari) bo'yicha nutq kompetensiyasiga qo'yiladigan talablar. Nutq kompetensiyasini baholash mezonlari.

O'qishni o'rgatish. O'qish nutq faoliyatining bir turi sifatida. O'qishga o'rgatishning maqsadlari. O'qish turlari. Har xil o'qish turlari uchun matnlarga qo'yiladigan talablar. Ovozli va ovozsiz o'qish texnikasini o'rgatish muammolari. Har xil o'qish turlarida tushunishni tekshirish usullari. O'qish kompetensiyasini baholash mezonlari.

Yozishni o'rgatish. Yozish nutq faoliyatining bir turi sifatida. Yozishni o'rgatishning maqsadi va texnologiyalari. Yozma ish turlari. Yozma nutqni

egallashni nazorat qilish turlari va shakllari. Yozish kompetensiyasini baholash mezonlari.

Leksikani o'rgatish. Chet tili kommunikativ kompetensiyasining tarkibiy qismi sifatida leksik kompetensiyani shakllantirish. Kontekstda leksikani o'rgatish. Leksik minimumni tanlash muammolari. Leksik minimum turlari. Lug'atning uslubiy tipologiyasi. Leksik material ustida ishlashning asosiy bosqichlari. Leksik mashqlarning tipologiyasi. Leksik kompetensiyasini nazorat qilish.

Grammatikani o'rgatish. Grammatik kompetensiyani uzluksiz ta'lim tizimining turli bosqichlarida chet tili kommunikativ kompetensiyasining tarkibiy qismi sifatida shakllantirish. Grammatik minimumni tanlash. Grammatik ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish yo'llari va usullari. Grammatikani kontekstda o'rgatish. Yangi grammatik material bilan tanishtirish usullari. Grammatik mashqlarning tipologiyasi. Grammatik kompetensiyani nazorat qilish texnikasi va usullari.

Talaffuzni o'rgatish. Fonetik kompetensiyani uzluksiz ta'lim tizimining turli bosqichlarida chet tili kommunikativ kompetensiyasining tarkibiy qismi sifatida shakllantirish. Eshitib talaffuz qilish ko'nikmalarini rivojlantirish usullari. Talaffuzni o'rgatish uchun mashqlar. Eshitib talaffuz qilish ko'nikmalarini nazorat qilish.

Rus/chet tillarini o'qitishda axborot, kommunikatsiya va zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Til o'qitishda pedagogik texnologiyalarning rivojlanish tarixi. Til o'qitishda pedagogik texnologiyalarning roli va o'rni. Interaktiv, modulli, o'yin, loyiha texnologiyasi va boshqalar Tillarni o'qitish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining turlari.

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. **Общеевропейские компетенции владения иностранным языком: Изучение, обучение, оценка.** – М., 2020. (Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment.).

2. Азизходжаева А.К. Педагогическая технология и педагогическое мастерство. -Т. 2002.
3. Ахмедова Л.Т., Нормуратова В.И. Практикум по методике преподавания английского языка. –Т.: Фан ва технология. - 2011.
4. Ахмедова Л.Т., Лагай Е.А. Современные технологии преподавания русского языка и литературы. - Т., 2016.
5. Гальскова Н.Д., Василевич А.П., Коряковцева Н.Ф., Акимова Н.В. Основы методики обучения иностранным языкам. - КНОРУС. – МОСКВА, 2017.
6. Гез Н.И. История зарубежной методики преподавания иностранных языков: учеб. пособие для студ. лингв. ун-ов и фак. ин. яз. высш. пед. заведений / Н.И. Гез, Г.М. Фролова. – М.: Издательский центр «Академия», 2008.
7. Жалалов Ж.Ж. English Language Teaching Methodology. – Т.: Фан ва технология. - 2015.
8. Мильруд Р.П. Методика преподавания английского языка. English Teaching Methodology: учеб. Пособие для вузов / Р.П. Мильруд. – М.: Дрофа, 2005.
9. Миролубов А.А. История отечественной методики обучения иностранным языкам / А.А. Миролубов. – М.: СТУПЕНИ, ИНФРА-М, 2002.
10. Пассов Е.И. Методика как теория и технология иноязычного образования. – Кн. 1. – Елец: ЕГУ им. И.А. Бунина, 2010.
11. Тер-Минассова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация / С.Г. Тер-Минассова - М.:СЛОВО/SLOVO, 2000.
12. Erl, A. Interkulturelle Kompetenzen – Erfolgreich kommunizieren zwischen den Kulturen / A. Erl, M. Gymnich. – Stuttgart : Klett Lernen und Wissen GmbH, 2007.
13. Jo McDonough, Christopher Shaw and Hitomi Masuhara “Materials and Methods in EIT”. Teacher’s Guide”. John Wiley & Sons, Inc. 2013.
14. Tomlinson B. Materials Development in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010.
15. Ur P. A Course in Language Teaching: Practice and Theory. Cambridge: Cambridge University Press, 2010.
16. Zeuner, U. Landeskunde und interkulturelles Lernen. Eine Einführung / U. Zeuner. – Technische Universität Dresden, 2004.

Qo’shimcha adabiyotlar

1. Компетенции в образовании: Опыт проектирования: Сб. науч. тр./Под ред. А.В. Хуторского. – М.: Научно-внедренческое предприятие «ИНЭК», 2007.
2. Кобышева А.В. Английский язык. Современные методы обучения. – Минск. - 2007.
3. Краевский В.В. Методология научного исследования: пособие для студ. и асп. гуманитар. ун-ов / В.В.Краевский. – СПб.: СПб. ГУП, 2001.

4. Соловова Е.Н. Методика обучения иностранным языкам: базовый курс лекций. – Москва, 2005.
5. Щукин А.Н. Методика обучения иностранным языкам. Курс лекций. – М.: Изд.-во УРАО. - 2002.
6. Щукин А.Н. Современные интенсивные методы и технологии обучения иностранным языкам. – М. - 2008.
7. Ёкубов И.Я. Comparative Methods of Teaching English at Schools, Lyceums and Colleges. - Т. - 2014.
8. Byram, M. Introduction. Intercultural competence / M. Byram / edited by M. Byram. – Council of Europe, 2006.
9. Dittlman, A. Intrekulturelle Kompetenzentwicklung durch kulturelle Bildung. Deutschlands Akteure im Spannungsfeld / A. Dittlman. – VDM Verlag Dr. Müller, Saarbrücken, 2007.
10. Leaver B.L., Ehrman M., Shekhtman B. Fchieving Success in Second Language Acquisition. – Cambridge: Cambridge University Press, 2005.

Internet resurslar

<http://www.teachingenglish.org.uk>

<http://www.usc.edu>

<http://www.teachermentors.com>

<http://www.teachnet.org>

<http://www.sci.aha.ru/ALL/>

<http://www.onestopenglish.com>

<http://www.tesol.org>